

O'ZBEK VA TURK ANTRAPONIMLARINING MOTIVLANISH ASOSLARI

Avezova Anajon Ko‘paysin qizi

Toshkent Tibbiyat Akademiyasi

Pedagogika, psixologiya va tillar kafedrasи o‘qituvchisi

Avezovaanajon9309@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘zbek va turk tilshunosligida antroponimlarning motivlanish asoslari haqida fikr yuritiladi. Bir qator misollar yordamida kishi ismlari qiyosiy tahlil qilinadi. Antraponimlar haqida olimlarning nazariy qarashlari tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: antroponim, nominativ, identifikatsiya.

ANNOTATION

This article discusses the motivational basis of anthroponyms in Uzbek and Turkish linguistics. Using a number of examples, personal names are comparatively analyzed. The theoretical views of a number of scientists about anthroponyms are analyzed.

Key words: anthroponym, nominative, identification.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются мотивационные основы антропонимов в узбекском и турецком языкоznании. На ряде примеров проводится сравнительный анализ личных имён. Анализируются теоретические взгляды некоторых ученых на антропонимы.

Ключевые слова: антропоним, номинатив, идентификация.

KIRISH

Nominativ, ya’ni shaxsni nomlash, atash turli omillarga borib taqaladi. Jumladan, milliy etnografik an’ana va udumlar, ishonch, tasavvurlar hamda estetik motivlar (bolaga chiroylı ism tanlash, ya’ni ismni go‘zallik jihatidan baholash), shuningdek, axloqiy-tarbiyaviy motivlar, ya’ni bolaga u kelajakda axloqiy jihatdan yetuk, komil inson bo‘lishini tilash tushunchasini ifodalovchi ismlar tanlash. Diniy motivlar ham jamiyat hayotida alohida o‘rin egallaydi. Bu motiv ma’lum tarixiy sharoit sababli o‘zgarishlarga uchragan bo‘lsa-da, uning asosiy mazmuni - diniy e’tiqod

Yuqoridagi motivlar turkiy xalqlar ismlarining paydo bo‘lishi, ismlar fondining shakllanishi va boyishida asosiy omil bo‘lib xizmat qilgan va bugungi kunda an’anaviy fond sifatida iste’molda bo‘lishini ta’minlab kelmoqda.

Muhokama va natijalar.

Akademik V.A.Gordlevskiy o‘zining 1913-yilda yozilgan “Usmonli turklarning onomastikasiga oid” nomli maqolasida turk ismlari tarixini ikki katta davrga bo‘lgan: 1) qadimiy ko‘chmanchilik hayotidan to musulmonlik davrigacha bo‘lgan davr; 2) musulmon davri va undan keyingi davr. Maqola muallifi fikricha, birinchi davrga chaqaloqni turli “yovuz kuchlardan asrash motivi bilan bogliq ismlar kiradi. Keyingi davr esa islom dini tushuncha va tasavvurlari bilan bog‘liq bo‘lganlari.

Qadimdan barcha turkiy xalqlarda chaqoloqqa ism tanlash jarayonida turli ishonchlardan kelib chiqib, har xil motivlarni asos qilishgan. Bolalarga ism qo‘yishda din, til va madaniyatning ta’siri bor. Shuning uchun oilalar ism qo‘yishda nafaqat farzandlariga, balki o‘z oila tarkibiga ham e’tibor qaratishlari kerak.¹ Turk jamiyatida ham, boshqa jamiyatlarda ham nom berish jarayoniga katta ahamiyat beriladi.

Turkiy madaniyatidagi nom qo‘yish an’analarining asosiy dinamikasini quyidagicha tasniflashimiz mumkin:

- Allohnning “Abd”li yoki “Abd” so‘zisiz ism va sifatlari: Kerim, Samet, Macit, Abdulloh, Abdurahmon
- Quronda tilga olingan so‘zlar: Furqon, Yasin, Muhsin, Molik, Ahsen; Aleyna, Kezban (Aleyna kabi ma’nosiz iboralar yoki Kezban kabi yomon ma’noli iboralar mavjud bo‘lsa ham, bu so‘zlar Quronda zikr qilingani uchun bolalar uchun shunday ismlar qo‘yilgan.)
- Payg‘ambarlar, sahabalar, avliyolar, din peshvolari ismlari: Muhammad, Muso, Iso, Maryam (Meryem), Fotima (Fatma), Robiya, Ali, Umar (Ömer), Hasan...
- Tarixdagi muhim shaxslar va yetakchilarning ismlari: Temur, Alisher, Mete, Selcuk, Alparslon, Fotih, Yavuz, Mustafo Kamol...
- She’r, hikoyat, doston, turkiy ertak va rivoyatlarda tilga olingan ismlar: Forhod, Shirin, Mecnun, Asli, Karam, Shaydo, Bog‘ach, Ayxon, Orxon,
- Davlatdagи muhim shaxslarning nomlari: Xon, Xoqon, Sulton, Amir, Malika..
- Osmondagi jism va mavjudotlar yoki ob-havo hodisalari bilan bog‘liq ismlar: Hava, Sema, Güneş, Oftoboyim, Yulduz, Ayxon, Bulut, Yağmur, Rüzgâr, Tayfun...
- Yerdagi geografik joylar va hodisalar bilan bog‘liq ismlar: Toprak, Atesh, Meric, Deniz, Daryo (Derya), Tuna, Aras, Seyhan, Ege, Kuzey, Güney...

¹ Ilknur Doğru.Türk kültüründe ad koyma olgusu ve ilgili inanışlar. E.:2020.55-60 bet

- Yoqimli hayvon va o'simliklar nomlari: Arslon, Kartal, Gul, Chinor, Filiz, Fidan, Yasemin...
- Muhim kunlarning nomlari: Arife, Jumagul, Kadir, Bayram, Ramazon, Kurtuluş, İstiklal...
- Fasl, oy va kun vaqtiga ko'ra ismlar: Eylül, Bahar, Navbahor, Nisan, Hazan, Yaz, Seher, Safak (O'zbek tilida faqat Bahor va Navbahor ismi ishlataladi)
- Mavhum ma'noli ismlar va go'zal his-tuyg'ularni ifodalovchi ismlar: Sevinch Umut, Umida, Mutlu, Baxtishod, Rüya...
- Tilaklarni ifodalalovchi ismlar: Tursunoy, Ko'paysin, Durdu, Döne, Durmuş, To'xtasin, Yeter, Yaşar...

Motivatsiya lisoniy va nolisoniy omillar uyg'unligi hamda mushtarakligini o'zida aks ettiradigan murakkab jarayondir. Bu jarayonda o'zbek va turk xalqining uzoq tarixga ega milliy mentalitetini, umumbashariy va o'zigagina xos xususiyatlarini hisobga olish zarur. Ismlar turli ma'nolarni ifodalib keladi va har xil maqsadlarni ko'zlagan holda tanlanadi. Ba'zi ismlar chiroqli tafsiflash mazmuniga ega. Masalan, quyida keltirilgan turkiy antroponimlar farzandning shu xususiyatlar sohibi yoki sohibasi bo'lib voyaga yetsin deb tanlanadi. Masalan, Po'lat ismi turkiy xalqlarda juda qadim zamonlardan beri foydalanib kelinadi va bola baquvvat, sog'lom, kuchli bo'lib, uning umri mustahkam metalga qiyoslanib qo'yiladi. Yorqin ismi hayoti (kelajagi) ravshan, yorqin, porloq, yorug', nurli bo'lsin degan ma'nolarni anglatib, turkcha varianlari Piril, ışık(nurli, yorug'). Nozima – Naz, Marvarid - Inci, Olmos – Elmas, Kumush – Gümüş ismlari ham tug'ilajak bolaning har xil sifatlarini tavsiflash motivi orqali yuzaga kelgan.

Bolalar yaxshi xulqli, yaxshi xarakterli, mehnatsevar, muvaffaqiyatli bo'lsin deb va ularga baxtli hayot tilash uchun berilgan ismlar: Alim(Olim). Ushbu ismi asosan o'g'il bolalarga qo'yiladi va bu ism arabcha bo'lib, quyidagi ma'nolarga ega: bilimli, aqilli, donishmand, ziyoli, farosatli, dono, bilguvchi, xabardor, ilm sohibi. Oydin (Aydin) Yorqin, aniq, porloq, oyday munavvar, go'zal, oy yorug'idan ham yorqin, maftun qiluvchi degan ma'nolarni anglatadi. Bu ism juma kuni tug'ilgan qizlarga ham qo'yiladi. Baxtiyor (Bahtiyor) ismi arabcha, fors-tojikcha bo'lib, quyidagi ma'nolarga ega: saodat, qut, istiqbol yor bo'lган bola yoki shodon, quvnoq, baxt-saodat, quvonch yor bo'lsin. Dilshod: Quvnoq, baxtiyor, shodon yoki ko'nglimizning quvonchi bo'lган farzand, dili shod bo'lib yursin yoki qalblarga sevinch, shodu-hurramlik bahsh etuvchi. Roza (Rose-atirgul), Kamol (kemāl): yetuk, mukammal, nuqsonisiz, bekamu-ko'st. (Melek) Malak ismi asosan qiz bolalarga qo'yiladi va bu ism arabcha bo'lib, quyidagi ma'nolarga ega: farishta, ya'ni chiroqli, suluv, sohibjamol, zebo, go'zal, sof, pok, ozoda, orasta. Murtazo ismi asosan o'g'il bolalarga qo'yiladi va bu ism arabcha bo'lib, quyidagi ma'nolarga ega: tanlangan, saylangan, suyukli, qadrli. Bu nom halifa Alining

(r.a.) sifatlaridan biri bo‘lgan. Munavvar (Munevver) ismi turk va o‘zbek tilida eng ko‘p ishlataladigan va mashhur ismlardan biridir. Munevver ismi bir nechta ma’nosи bilan ajralib turadigan go‘zal ismlar qatoriga kiradi. Xususan, Oydin, yoritilgan kabi ma’nolari ko‘pchilikning e’tiborini tortadi. Naile (Noila) Noila ismi arab tilidan turkiy tillarga o‘tgan ism bo‘lib, muvaffaqiyat ma’nosini bildiruvchi ismdir. Nozima - Nazli (<For. nāz + Tk. +lı), Rashida - Raşida , Saodat - Saadet, Sodiq - Sadih , Sevinch - Sevinç(<Tk. sev-i-n-ç), Sulton, Shirin (<For. şırın), Omad - Uğur (<Tk. omadlı), Zarifa -Zarife va boshqalar.

Ism o‘z egasini tanib olish imkonini beruvchi va boshqa shaxslardan ajralib turadigan eng ko‘zga ko‘ringan belgidir. Shunga ko‘ra, inson hayotida eng ko‘p eshitadigan so‘z - bu uning ismi. Shu sababdan har kim o‘z ismining go‘zal bo‘lishini istaydi va buning natijasida o‘z ismining ma’nosini qabul qilib, psixologik yengillikka erishadi. Darhaqiqat, insonning ismni o‘zlashtirib olishi, tabiiy motiv bilan o‘zlashtirishi ham buni tasdiqlaydi. Chunonchi, uning ismi jasoratni ifodalasa, shu ma’no bilan o‘tirib tursa, o‘sha ismgaga muvofiq harakat qilishni orzu qiladi, ong ostiga jasoratni joylashtiradi; U solihlikni ifoda etsa-da, u doimo yaxshi bo‘lishga intiladi. Jamiyatning kutayotgani ham shu yo‘nalishda. Masalan, o‘z nomiga ko‘ra harakat qiladigan kishi nomi bilan "O‘z nomiga yaxshi" yoki "o‘z nomiga muvofiq harakat qilgan" kabi

Atoqli otlar uzoq yillar davomida xalqlar tomonidan foydalaniladi, ya’ni ularga asos bo‘lgan so‘z eskirib istemoldan chiqishi mumkin, lekin o‘sha so‘zdan yasalgan ism qo‘llanilaveradi. Masalan , qiyoslanayotgan tillarda Sulton ismi qizlarga uzoq o‘tmishdan beri qo‘yilgan. Bu dastlab amr beruvchi shaxslarni anglatgan bo‘lsa, bugungi kunda turklar qiz farzanlari uchun bu ismnini tanlashadi. O‘zbek xalqida esa bu ismdan har ikkala jins vakillarini nomlashda foydalaniadi. Demak, Sulton ismi zamonaviy, uning yasalishiga asos bo‘lgan so‘z tarixiydir. Amin, Amir ismlari ham bunga misol bo‘la oladi.

Turkiy xalqlarda farzand kutayotgan oilalar alohida hayojon va ruhiy –ma’naviy jarayonni boshidan kechiradi va bu holatlar tug‘iladigan bolaga ism tanlashda turli motivlarni keltirib chiqaradi. Turkiy xalqlarda tug‘ilajak bolani, ayniqsa, farzandsiz bo‘lgan oilalarda katta orzu bilan kutishadi. Mana shu holat, Farzandga ism tanlashga asos bo‘ladi: Masalan: Umid - Ümüt, Murod - Murat, Tilovberdi, Shukrona – Şükran.

Birinchi farzandni mamnunlik bilan kutib olganda mana shu shod-u xurramlikni ifodalish motivi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Sevinch, -Sevinc , Quvonch - Kvanç, Xurram- Hürrem

Tug‘ilajak bolani yomonliklardan asrash va bolaga xavf solishi mumkin bo‘lgan yovuz ruhlarni chalg‘itish maqsadida ham farzandlarga turli xunuk yoki salbiy ma’no bildiruvchi ismlarni tanlashga harakat qilinadi. Masalan, Itolmas (Kopek) , Yaman¹

Bola turli qiyinchiliklarga qarshi matonatli, kuchli bo‘lsin deb , pishiqlik ramzi bo‘lgan narsalardan tanlashadi. Masalan, Temir - Demir, Qalqon, Tesha

O‘zbeklarda va boshqa turkiy xalqlarda ham, bolaga o‘tgan ajdodlar (bobosi, buvisi, otasi, onasi va boshqa qarindoshlar) ismini berish an’anasi odat bo‘lgan. Bunda ikki maqsad ko‘zda tutilgan: a) o‘tmish ajdod nomini saqlash, uning ruhini shod qilish; b) ismi bolaga qo‘yilgan ajdod ruhi bolani qo‘llab (asrab) yuradi deyilgan ishonch

Bolaga sog‘lik va uzoq umr tilashgan, shunday umid qilinsa, tilagim ijobat bo‘lib farzandim salomat va uzoq yashaydi, deb ishonishgan: Yoshuzoq, Yoshiyashar, Izbosti, Izboskan, Ko‘pyashar, Ko‘pjon, Mingyashar, Tirik, Tirikbek, Turaq, Turgantosh, Turyigit, Tursun, Tursunoy, Turgun, Turguna, Turguntosh, To‘lqin, To‘lqitoy, To‘xta, To‘xtar, Uzok(Uzoqoy, Eson, Esonbo‘ldi, Esonbeka, Esontur, Yursin, Yursinoy, Ulmas, O‘lmasxon, Ushasin va boshqalar.

Qadimgi turkiy udumlardan biri - bolaning qaysi urug’, qabila, avlodga mansubligini ism orqali aks ettirishga intilishdir: Jaloyir, Jag’alboy, Mitanboy, Mitanoy, Turkboy, Turkman, Turkqiz, Xalajboy, Chig’atoy, Yuzboy, Yuzbeka, Yuzo‘g‘li, O‘zbek, O‘zbekoy kabi².

Ota-onalar tugilgan bolaning ko‘rinishi, rangu ro‘yiga ham diqqat qilishgan. Ba’zan o‘g‘il va qizlar sariq sochli, qo‘ngiroq (jingalak sochli), oppoq yoki qorachadan kelgan, gavdali yoki nimjon bo‘lib tug‘ilgan. Bu holatlar bolaga tanlanadigan ismda ko‘zda tutilgan: a) bolaning yuz ko‘rinishi, ko‘zi, sochlari: Kumushsoch, Oltinsoch, Sari, Sariboy, Sariqboy, Qorasoch, Qoraboy, Qorako‘z, Mavigöz; b) bolaning gavda tuzilishiga ham e’tibor qilishgan: Davboy, Davjon, Davqora, Davbeka, Polvon, Polvonoy, va boshqalar.

Kishilar farzandining kelishgan, go‘zal inson bo‘lib ulg‘ayishini xohlashadi, umid qilishadi. Shu sababli, kishilar go‘zallik tushunchasini ifodalash uchun bu tushunchani anglatadigan so‘zlarga murojaat qilishgan va ulardan chiroyli ismlar yasashgan: 1) ism bevosita go‘zallik tushunchasini anglatadigan so‘zlardan yasalgan: Ko‘rkam, Ko‘rkamoy, So‘lim, So‘limoy, Suluv, Suluvbeka, Boysuluv, Suluvqiz, Xonsuluv, Elsuluv, Suzuk va boshqalar; 2) ism go‘zallik ramzi bo‘lgan narsalar nomiga nisbat berish orqali ham hosil qilingan: Kumush, Kumushoy, Kumushgo‘zal, Ipak, Ipaksuluv, Oltin, Oltinoy va boshqalar;

O‘zbek madaniyatida bolaning ismi uning xarakterini shakllantiradi, degan fikr hukmronlik qiladi. Shu sababli, ularda bolaga ism qo‘yish juda muhim o‘rin tutadi.

¹ Aksan, Doğan, Her Yönüyle Dil 3 (Ana Çizgileriyle Dilbilim), Türk Dil Kurumu Yayınları, Ankara. 2003. 115-bet

²Бегматов Э. Ўэбек тили антропонимикаси: Филол. фан. ном.... дис. Тошкент, 1965-28 б

O‘zbeklar ba’zi bolalarga Rasul, Akram, Nabi kabi ismlar qo‘yish orqali Allohning rahmatiga erishib, ularni himoya qilishiga ishonadilar. O‘zbeklar bolalarga ism qo‘yishda tug‘ilish vaqtida sodir bo‘lgan voqealarni ham hisobga oladi. Misol uchun; Agar bola to‘yda tug‘ilgan bo‘lsa, To‘ychi, safarda tug‘ilgan bo‘lsa, Safar deyiladi.

Qadim-qadimdan ota-bobolarimiz chaqaloqqa ism qo‘yishar ekan, uning baxti va omadi ismiga bog‘liq deb hisoblashgan. Ushbu e’tiqod ismlar xosiyatli va xosiyatsiz bo‘ladi, degan qarashni tug‘dirgan. “Chaqaloqqa qo‘yilgan ism uning taqdiriga ta’sir qiladi” deyilgan tasavvurlar davrlar o‘tishi bilan ismni bolaning himoyachisiga, unga qandaydir bog‘langan, unga doimo va bir umr hamroh, hamdam bo‘lib yuradigan vositaga aylantira borgan

S.E.Kenjayeva o‘zining nomzodlik dissertatsiyasida o‘zbek ismlarini bag‘ishlov ismlar, tasviriy ismlar va ism-istiklarga ajratib tasniflaydi 1. Bag‘ishlov ismlarini qo‘yishda sabab chaqaloqning tug‘ilishi, farzandli bo‘lish biror ilohiy, muqaddas kuchning irodasi, ko‘magi, ehsoni deb hisoblanadi va chaqaloqqa o‘sha taxmin qilingan, e’tiqod qilinayotgan narsa, shaxs, tasavvurning nomi ism sifatida beriladi. Bag‘ishlov ismlarining o‘zi bolaning tug‘ilishi va etnologik tushunchalarga nisbat berish orqali namoyon bo‘ladi. Bu kabi ismlarni quyidagicha ma’nolar ifodalanadi: Keldixon, Kelsin, Mehmonoy, Mehmonbek, Lozim, Lozima kabi nomlarda ota-onalarining tug‘ilgan chaqaloqqa munosabati ifoda etiladi. Armonboy, Intizor, Zorliq, Ijobat, Maqsadoy, Orzuniso, Tilaboldi, Tilakberdi, Umida, Umid ismlarida esa farzandli bo‘lish orzu qilib kutilgan va bolaning tug‘ilishi ana shu tilaklarning amalga oshishiga ishora qilinadi. Tasalli, Taskinoy, Taskina, Shukura, Shukriya, Qulluq, Qulluqbeka va b.larda esa chaqaloqning dunyoga kelishi oilaning taskin topishi, tinch va osoyishta bo‘lishi uchun sabab deb hisoblanadi. Azizkeldi, Loyiq, Manzura, Ma’qula, Munosib, Suyukli, Suyuma kabi ismlarda bola oilaning munosib a’zosi deb qabul qillingan.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda o‘zbek va turk tillaridagi antraponimlarning motivlanish asoslari orzu istak ifodalovchi , tafsiflovchi va diniy ismlarda bir biriga juda o‘xshash bo‘lib, tashqi ta’sirlar asosida o‘zgarishlarga uchragan antropomimlar bir biridan tubdan farq qiladi. Turkiy xalqlar orasida ism insonning bir umrlik hamrohi, uning erishadigan yutuqlari yoki muvaffaqiyatsizliklari qanday ma’nodagi nomga ega ekanligi bilan bog‘lanadi. Turkiy ismlar fondi ko‘pchilik turkiy xalqlar uchun mushtarak mulk ekanligi ma’lum. Lekin bu ismlar barcha turkiy tillarda bir xil darajada saqlanmagan, mavjudlari esa ma’nosи va lisoniy shakliga ko‘ra o‘ziga xos tomonlarga ega. Demak, turkiy nomlar fondi, bir tomonidan qardosh turkiy tillar antropomiyasida mushtaraklik belgisini yuzaga keltirsa, ikkinchi tomondan, har bir til nomlari majmuida o‘ziga xoslikni, milliylikni ta’minlaydi. Mana shu ma’noda hozirgi o‘zbek

tilidagi asli turkiy ismlarni qadimiy turkiy va zamonaviy turkiy ismlar fondi bilan qiyosan o‘rganish va bu orqali o‘zbek antroponomiyasidan milliy o‘ziga xoslikni yuzaga kelishi va buning asosiy lisoniy belgilarini aniqlash juda muhimdir

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Aksan, Doğan, Her Yönüyle Dil 3 (Ana Çizgileriyle Dilbilim), Türk Dil Kurumu Yayınları, Ankara. 2003. 115-bet
2. Бегматов Э. Ўэбек тили антропонимикаси: Филол. фан. ном.... дис. Тошкент, 1965-28 б
3. Ilknur Doğru. Türk kültüründe ad koyma olgusu ve ilgili inanışlar. E.:2020. 55-60 bet
4. Yrd. Doç. Dr. Cemal Ağıman. Ad koyma ve Hz. Peygamber’ in İsimlere Karşı Tutumu. Cumhuriyet Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Hakemli Dergi. 1998. 124-143 bet
5. Taş. Bursa İli ve Çevresinde Doğum ve Çocukla İlgili Gelenek-Görenek ve İnançlar. Bursa Halk Kültürü Sempozyumu Bildiri. 2002. 573-580-bet